

BOLALAR TA'LIMIDA PSIXOLINGVISTIKA

Abdug‘aniyeva Mushtariy Muzaffarjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti, talaba.

E.mail: abduganiyevamushtariy23@gmail.com

Kurbanov Elbek Elmurodovich

Andijon davlat chet tillar instituti, f.f.f.d., (Phd) dotsent

Anotatsiya: Ushbu maqolada bolaning nutq faoliyati zamirida yotgan struktura va jarayonlarni, xususan, nutqni hosil qilish, nutqni qabul qilish, kodlash va dekodlash, til qobiliyati, tilni egallash, kommunikatsiya, shuningdek, individning ichida kechayotgan psixik hodisalarni psixologik va lingvistik nuqtai nazardan metodik yondashuvlarning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, bola, psixolingvistika, individ, ta’lim, lingvistika, kognitiv, ilmiy tadqiqotlar.

Har qanday til psixolingvistik ta’lim lisoniy birliklarning kodlanishi va dekodlanish ko‘nikmalariga qaratilar ekan, mazkur jarayonni to‘g‘ri anglash va o‘quvchilarning ko‘rsatkichlarini mos ravishda baholash, shu orqali dars samaradorligini ta’minalash uchun psixolingvistik bilim zarur bo‘ladi va psixolingvistikaga e’tibor qaratiladi.

Taraqqiy etib kelayotgan har bir sohada yildan yilga yangi yutuqlarga erishib kelinmoqda. Ta’lim sohasi ham ma’lum bir pog‘onalardan o‘tib hozirgi yutuqlarga erishilgan. Hozirgi ta’lim bilan 20-19 asr ta’lim tizimining ham o‘ziga yarasha bir nechta asoslar bilan farqlanadi. Aniq manbalarga tayanib shuni aytish mumkinki, psixolingvistika uzoq 60 yil muqaddam AQSH da paydo bo‘lgan. Shu bilan birga 1950-yilning oxiriga kelib Amerikalik olimlarning ko‘pchiligi psixolingvistika terminini ko‘proq hayotga tadbiq qilishda o‘zlarini yuqori ko‘rsatdi, ya’ni bu termin ham hayotning bir formulasi sifatida ko‘rinishni boshladi. Tabiiyki, bu hozirgacha davom etmoqda. Terminning asosini aniqroq

qilib aytganda, ilmiy olamga yoygan bu ikki insonlar Ch.E.Osguda va T.A.Sebeokalar hisoblanadi. Bu ikki olim psixolingvistika va undagi kirish qism ma'nolarini keng yoritgan holda o'z maqolalarini birgalikda bosib, ilm ahliga ovoza qilgan. Bugungi kunga kelib esa nafaqat Amerika olimlari, deyarli dunyoning eng oldi mamlakatlarida va rivojlanayotga davlatlarda, eng nufuzli dargohlarda bu sohani o'rganish va chuqur izlanishlar bilan bir necha muammoli masalalarni yechishga harakat qilayotgani yaqqol hayotimizda ayon bo'lyapti.[1]

Ta'lif mazmun mohiyati har qaysi zamonda o'zgarmasligi mumkin, biroq har bir davr, har bir jamiyat ta'limga o'z talablarini qo'yadi va ana shu nuqtai nazardan ta'limning majburiyat va maqsadi zaruriy vositalari vaqtlar o'tishi bilan takomillashib boraveradi.

Yurtimizda tilshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar turli xil usullar, qarashlar, yangiliklar hamda yutuqlar va ilmiy tadqiqotlar asosidagi turli xil yondashuvlarga tayangan holda olib borilmoqda. Yangi yondashuvlar ichida tilning tub mohiyatini ochib berishga qaratilgan yo'nalishlar talaygina hisoblanadi. Ana shunday yo'nalishlardan biri bu psixolingvistikadir.

PSIXOLINGVISTIKA - "Lingvistik va psixologik bilim sohalarini va ularni amaliyotda qo'llanishini birlashtirgan fanlararo fan. Psixolingvistika-bu fan sohalarining o'ziga xos chatishmasidir.[2]

Psixolingvistika fan sifatda qanday vazifalarni bajaradi?

Psixolingvistika jamiyatning tilga tilning jamiyatga ta'sirini hamda nutq hodisasining ijtimoiy jihatini tahlil qilishda, til psixologiyasi va lingvistika terminlarini o'zaro farqlash, til variantlarini funksional jihatdan tahlil qilish va lingvistik strukturada tildagi qo'shma variantlashuvni ochib berish kabi qator vazifalarni bajaradi.

Psixolingvistik ta'lifi chuqurroq tushunish va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini to'g'ri tekshirish yaxshiroqdir. Ko'pgina ma'lumotlar psixologiyadan oladi, lekin u o'z navbatida fanning boshqa ko'plab sohalarini boyitadi. Psixolingvistik ta'lim psixalogiya fanidan va lingvistik fanlaridan oladi va unga hissa qo'shadi.

Psixolingvistikani ta’lim tizimimizda keng ko‘lamda qo‘llashni kirish qismida qo‘llash kerak ya’ni o‘sib kelayotgan yoshlarga go‘daklik paytidanoq ongiga singdirish kerak.

Bola tug‘ilgan muhit, auraga ko‘ra shakllanadi. Uni boshqa bir jamiyat a’zosiga yoki eski avlodga taqqoslab ko‘rsatish u yashayotgan zamondagi imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanishga to‘sqinlik qiladi. Bolaning kognitiv tushunchalari uni psixolingvistik xarakteriga ko‘ra voqelikka aylanadi. Jamiyatning unga ta’siri, e’tibor va qiziqishlaridan kelib chiqib tilining kognitiv olami kengayib boradi.[1]

Bolaning psixalogiyasi va uning rivojlanishida muhim ro‘l o‘ynaydigan eng yetuk soha bu ta’lim tizimi hisoblanadi. psixolingvistika esa bolalar ta’limida tilni qanday qayta ishlashi va undan foydalanishini tushunish uchun muhim dasturulamaldir. Bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirishda psixolingvistik tajribalardan keng foydalanilsa va tadbiq etilsa, darslar samarali tashkil etiladi.

Shunday ekan bolaning ta’lim tarbiyasidagi kognitiv taraqqiyoti bilan bog‘liq xususiyatlari, bиринчи navbatda, uning nutqiy xulqida o‘z ifodasini topadi. Har bir bola o‘sib ulg‘ayib, hayotdagi bir nuqtada o‘zining o‘rnini topib anglagunicha qancha vaqt va kuch, harakatlar talab etiladi.

Bolalarda psixolingvistikaning yuksak darajada rivojlanishi va uning balog‘at davriga qadar, o‘z holida tarbiyani berish, unga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata bilish asosiy eng muhim vazifa sanaladi. Chunki bolalarmiki bo‘lgan har bir keljakni rang barang va nihoyatda go‘zal qilib yaratishda ham ota-onalarning harakati va e’tibori katta ahamiyat beradi.

Nutq asosan individda 7 yoshgacha bo‘lgan davr mobaynida hosil bo‘ladi hamda dastlabki nutq rivojlanuvchi davr nutq ontogenetida muhim o‘rin tutuvchi bosqich hisoblanadi.

Amerkalik mashhur psixolog professor Jerom Brunerning ta’kidlashicha, yaxshi ota-onan “farzandi gapirishni boshlamasdan avval muloqotsiz aloqa o‘rnatadi va shu aloqada yordamida u bilan o‘ynab bolani rivojlantiradi”. Aynan go‘dak eshitadigan va o‘rganadigan nutq uning miyasi rivojlanishida katta

ahamiyat kasb etadi. Ilk yoshdagagi bolalar nutqining rivojlanishi ikki davrdan iborat:

1.Tayyorgarlik davri. Bu davr bir yoshgacha bo‘lgan bolalar xayotini o‘z ichiga qamrab oladi;

2.Nutqning mustaqil rivojlanishi davri. Bu davrga ikki va uch yoshdagagi bolalar kiradi.

1-3 yoshdagagi bola shakllanishda psixik rivojlanishning o‘ta ahamiyatliliginin inobatga olgan holda, ayrim psixologlar (R.Zazzo) inson tug‘ilganidan to yetuklik davrigacha bo‘lgan psixik rivojlanish asosining taxminan o‘rtalari, 3 yoshga to‘g‘ri keladi, degan mulohazani bildiradilar [4]

Bolaning dastlabki nutqining rivojlanuvchi davrida nutq ontogenezi muhim o‘rin tutuvchi bosqichda nutqiy patalogiyalar vujudga kelmasligi uchun go‘daklik paytidanoq muloqotga kirishish kerak, xatto bu jarayonni bola tug‘ilishi bilanoq boshlash lozim.

Olimlarning ta’kidlashicha 3 yoshgacha bo‘lgan bola miya faoliyatining ma’lumotlarni qabul qilish qobiliyati katta odamlarnikiga qaraganda nisbatan ustunroq ekan.

Nutq ya’ni so‘zlashuv nutqiy faoliyatning murakkab hamda ko‘p qirrali jarayonini o‘z ichiga olgan turi bo‘lib, nutq vositasida og‘zaki verbal muloqot amalga oshiriladi hamda so‘zlashuv nutq ko‘nikmalari oshiriladi. Muloqotni shakllantirish tilni o‘rgatishda eng qiyin vazifalardan hisoblanadi.

Nutq kishi ruhiyatining boshqa jihatlarini, uning sezgilari, idroki, xotirasi, o‘yxayollari, hissiyoti, irodasi va boshqalarning namoyon bo‘lishi va amal qilishida, kishi ongingining rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega. Nutq qo‘llanish sohasiga qarab badiiy nutq ilmiy nutq rasmiy nutq kabi shakllarga ega bo‘ladi. Har qanday shaklda va har qanday holatda ham aniqlik, ravonlik, soddalik, ta’sirchanlik nutqning eng muhim belgilari bo‘lib qolishi kerak.[6]

Psixolingvistika boshqa fanlarga nisbatan yosh fanlardan biri bo‘lib, gapirayotgan nutqimizning hosil bo‘lishi va nutqimizning idrok etish va shakllantirish jarayonlarini til tizimi bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganadi. Bunda

psixologiya va lingvistika fanlari uyg‘un holda sintezlashgan bo‘lib. U tekshirish manbaiga ko‘ra lingvistikaga, ularni tekshirish metodiga ko‘ra esa psixologiyaga yaqin turadi.

Shu sababli og‘zaki nutqimizni o‘stirishda psixolingvistikaning o‘rnini alohida ajralib turadi.

Nutq ko‘nikmalarini shakillantirishda pedagoglar kichik maktab davridan boshlab turli psixolingvistik muloqot shakillarini qo‘llagan holda og‘zaki hamda yozma nutqni o‘stirish va nutq madanyati bilan birga muloqotga kirishishni ham o‘rgatib borishlari zarur hisoblanadi.

Har qanday dars psixolingvistik jarayondir, chunki bola unda til vositasida berilgan ma’lumotni dekodlaydi yoki o‘z bilimini ifodalash uchun kodlaydi. Insonning har qanday kognitiv ko‘nikmasi tajriba asosida shakllanadi.[7]

Bolaning og‘zaki nutqning samaradorligi lingvistikani bilishdan tashqari - muloqot va madaniyat hamda etiket qonun qoidalari, noverbal (yuz ifodasi, qo‘l va tana harakatlari kabi) vositalardan foydalanish hamda ularni tushunish va shu kabi boshqa darajali (orqa fondagi) chuqur bilim va malakalarni egallashga tayanadi. Ushbu faktorlar til materiallari bilan birlashtirilgan holda, nutqiy tarzda ifodalanishi – ayni psixolingvistika tushunchasini taqozo etadi hamda uning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki: Psixolingvistika fani o‘ziga yondosh bir nechta fanlar bilan birlgilidka ish ko‘radi. Biroq alohida fan sifatida o‘ziga xos metod va metodologiya vazifasini bajaruvchi maxsus tadqiqot obyekti va alohida yo‘nalishiga ega fandir. Jamiyatda psixolingvistikaning ahamiyati yuqori bo‘lib, muloqot jarayonining inson ichki kechinmalarining nutqiy faoliyati bilan bog‘liqligi psixolingvistika ko‘zgusida namoyon bo‘ladi. Bu fanni chuqurroq o‘rganish va tadqiq etish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/kognitiv-tilshunoslik-va-bolalar-psixolingvistikasi-aloqasi-i>

2. <https://namdu.uz/books/> Psixolinguistika Majmua 2021.
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Individuum>
4. islomova ozoda1990@gmail.com ILK BOLALIK DAVRIDA
NUTQNING RIVOJLANISHI VA UNING AHAMIYATI
5. <https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences5/article/download/942/939/3402>
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Nutq>